

Asosiy vazifa va funksiyalari

1. vazirlik tizimida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha davlat siyosatini olib borish;

vazirlik shaxsiy tarkibi o'rtasida tarbiyaviy va mafkuraviy, axloqiy- ruhiy ta'minot, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish;

vazirlik tizimida yoshlar bilan ishlash bo'yicha davlat siyosati hamda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari faoliyatini tashkiliy-uslubiy jihatdan boshqarilishini ta'minlash;

vazirlik shaxsiy tarkibiga favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ruhiy-psixologik ko'mak berishni tashkillashtirish;

boshqarma ish faoliyatini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy, shuningdek, uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish.

2. a) vazirlik shaxsiy tarkibi o'rtasida tarbiyaviy va mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, huquqbuzarliklar profilaktikasini olib borish yo'nalishida:

davlat va jamoat tashkilotlari, shu jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Uzbekiston yoshlar ittifoqi, Yozuvchilar uyushmasi, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, olimlar, imom- xatiblar, ijodkor ziyolilar bilan ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari va boshqa tadbirlar orqali bahs va seminar, davra suhbatlari, seminar-trening, muzokara va munozara (disput), intellektual o'yinlar tashkil etish;

harbiy xizmatchilar va xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'alarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'tkazish;

ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkillashtirish; ma'naviyat soatlarini (Yoshlar ittifoqi boshlangich tashkilotining yo'nalishlar bo'yicha tadbirlari, kitob mutolaasi va boshqalar) tashkil qilish va o'tkazish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha suhbatlar o'tkazish; ma'naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni tadbirlarini (mardlik darslari, aksiyalar, davra suhbatlari, ekskursiya, tashriflar, musobaqalar va boshqalar) tashkillashtirish;

badiiy va hujjatli fil'mlar namoyish etish orkali shaxsiy tarkibda vatanparvarlik xislatlarini tarbiyalash;

ommaviy madaniy tadbirlarni (teatr spektakli, sahna ko'rinishlari, konsert dasturlari, badiiy va ijodiy kechalar, uchrashuvlar, badiiy havaskorlik jamoalarining chiqishlari) tashkil qilish va o'tkazish;

ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi tadbirlarida harbiy xizmatchilarning faol ishtirok etishi, fikr va tuygularini erkin bayon qilishi hamda shu orqali notiqlik san'atini oshirishga e'tibor qaratish;

seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, ijodiy uchrashuvlar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari o'tkazishni rejalashtirish;

urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkillashtirish;

teatr spektakli va sahna ko'rinishlari, badiiy asarlar muhokamasi, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar utkazish;

ogʻzaki koʻrinishda (tezkor xabar yetkazish, suhbatlar, leksiya, mavzuga oid suhbat va seminar, badiiy kecha, ochiq munozaralar), yozma ravishda (gazeta, jurnal, devoriy gazeta, qoʻllanma, kitoblar va boshqa adabiyot), koʻrgazmali tarzda (plakat, fotomontaj, panno, surat, kitob koʻrgazmalari, shuningdek, telekoʻrsatuvlarni jamoaviy koʻrish, muhokama kilish va b.) targʻibot ishlarini tashkillashtirish va oʻtkazish;

Uzbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda vazirlik harbiy xizmatchilari va xizmatchilari orasida huquqbuzarliklarning oldini olish, tergovga qadar va xizmat tekshiruvlarini utkazish, sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlik choralari kurish, hukukbuzarliklar profilaktikasiga bagʻishlangan chora-tadbirlarni amalga oshirish va sohaga doir hamkorlikni ta'minlash hamda muvofiqlashtirib borish;

hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarda shaxsiy tarkibning harbiy intizomi, axloqiy-ruhiy holati hamda harbiy xizmat xavfsizligini ta'minlash, harbiy jamoalarda soglom axloqiy muhitni shakllantirish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

b) vazirlik tizimida yoshlar orasida ularga oid davlat siyosati va axlosiy-ruhiy targibot ishlarini muvofislaitirish yoʻnalishida:

hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarda Uzbekiston yoshlar ittifoqining boshlangʻich tashkilotlarini tuzish yoki tuxtatishga doir hamda ularning barcha yoʻnalishlardagi faoliyatini yuritish boʻyicha ishlarni muvofiqlashtirib borish;

tegishli davlat va jamoat tashkilotlari, shu jumladan, Xotin-qizlar qoʻmitasi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilar oilalarida soglom turmush tarzini targib qilish, soglom oilalarni shakllantirish, bandliklarini ta'minlash, farzandlarining bilimi va ma'naviy saviyasini oshirish buyicha hududiy boshqarmalar hamda tarkibiy tuzilmalar boshliq (komandir)lariga amaliy yordam berib borish;

jamoatchilik va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda yosh harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha tadbirlarni tashkillashtirish!

v) favkulodda vaziyalar sodir boʻlganda, jabrlanganlar hamda vazirlik shaxsiy tarkibiga ruhiy-psixologik yordam koʻrsatish yoʻnalishida: ekstremal va favkulodda vaziyatlarda qutqaruvchi xodimlar faoliyatini psixologik ta'minlash;

favkulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga va ularning yaqinlariga tezkor psixologik yordam berish, psixoterapevtik yordam koʻrsatib, normal holatga qaytishda koʻmak berish;

harbiy xizmatchilar bilan psixologik tayyorgarlikni tashkillashtirish borasida chet mamlakatlar armiyalaridagi ilgʻor tajribalarni oʻrganish, uning asosida shaxsiy tarkibning psixologik tayyorgarligini oshirish boʻyicha ishlarni tashkil etish.